

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI LOYIHALASH KOMPENTENSIYALARI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Tojiyeva Guzal Saodatovna

Xalqaro Nordik Universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi

II kurs magistr

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosiy e'tibor "kompetensiya", "kompetentlik" "kasbiy kompetentlik" tushunchalarining mohiyati, mutaxassisning kompetentligi jihatlari, tasniflari, kasbiy kompetensiyalarning guruhlari hamda ularni rivojlantirishning asosiy yo'llari va vositalari olib berilgan.

Kalit so'z: kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, intellektual, gnostik, loyihalashtirish, tashkilotchi, texnologiya, konstruktorlik.

Zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonlari hozirgi kunda xalqaro mehnat bozorining asosiy talabi hisoblanadi. Buning sababi shundaki, jamiyatda erkin fikrlovchi, o'zini bemalol namoyon qila oladigan, o'ziga ob'ektiv jixatdan baho beradigan kishilar juda muhim. Ular jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchilari hisoblanadilar. Bu esa o'z o'mrida mutaxassislarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga katta xissa qo'shuvchi va ta'lim mazmunini yangilovchi, o'qitishning innovatsion shakl va usullarini, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini o'rgatishda ilg'or xorijiy tajribalarni amaliyotga keng joriy etish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu jihatdan, hozirgi kunda ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini yanada ko'tarishga, ta'lim yo'nalishlarining o'zaro uzviyligi va uzlusizligini ta'minlash bo'yicha qator chora -tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarida kompetensiya tushunchasi ham muhimdir. Kompetensiya - o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, hozirgi davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni topish ko'nikmasini, ularni qayta ishlashni hamda o'z faoliyati davomida qo'llashni talab qiladi.

Bugungi kunda "professional kompetensiya" atamasi tez-tez ishlataladi. Tushuntirish lug'atlarida kompetensiya tushuncha va bilim sifatida ta'riflanadi. Lotin tilidan tarjima qilinganda "competentia" inson bilimli, bilim va tajribaga ega bo'lgan bir qator masalalarni bildiradi. Lotin: competo - erishaman, bo'ysunaman, yondashaman. Bir so'z bilan aytganda, kasbiy kompetensiya bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotga aylantirish qobiliyatidir. Kasbiy kompetensiyalar - bu kasbiy

vazifalarni yoki muayyan kasbiy vazifani bajarish qobiliyati. Siz ishni samarali bajarishingiz va kerakli natijaga erisha olasiz deb taxmin qilinadi.[1.236]

Shuningdek, quyidagi kompetentsiya turlari ajratiladi:

- individual kompitensiya: o'zingizni targ'ib qilish va natijalarga erishishga yordam beradigan shaxsiy xususiyatlar.

- yetakchilik qobiliyatları: boshqaruv emas, balki yetakchilik. Chunki hamma rahbarlar ham rahbar bo'la olmaganidek, hamma ham rahbar bo'la olmaydi. Bu ko'proq insonning shaxs va mutaxassisning rivojlanishi uchun qanchalik yetakchilik qilishi yoki yo'l-yo'riq ko'rsatishi mumkinligi anglatadi.

- funktsional kompetensiyalar. Faqat inson faoliyati sohasini nazarda tutadi.

- ijtimoiy kompetensiya: ijtimoiy guruh ichidagi kognitiv va xulq-atvor qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

- hissiy kompetensiya: hissiy intellekt javobgar bo'lgan kuchli va zaif tomonlaringizni tahlil qilish qobiliyati.[2.189]

Kasbiy kompetensiya va kasbiy o'zlikni anglash butun umr davom etadigan jarayon bo'lib, inson orzu qilish, sinash, tanlash hamda ularni amalga oshirish bosqichlaridanoq kasb-hunar tanlaydi, so'ngra kasb-hunarga kirishadi keyinchalik dunyodagi kasb-hunarlarni o'zgarishiga, o'zidagi o'zgarishga, mehnatga bo'lgan munosabatini o'zgarishiga bog'lik ravishda kasbini yoki mutaxassisligini o'zgartiradi. Kasbiy kompetensiya deganda yana murakkab integral ta'lim, shu jumladan kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar to'plami tushuniladi. Ko'nikma va qibiliyatlar, shaxsiy fazilatlar, fikrlashning muayyan usullari va o'z harakatlari uchun muayyan darajada javobgarlik tushuniladi.

Zamonaviy o'qituvchi timsolida komillik mujassamlashishi muhim rol o'ynaydi. Bugungi kun o'qituvchisining kasbiy kompitentligini rivojlantirish -bu uning kunlik layoqatini, ish jarayoni unumdorligini oshirishdan iborat. Ish faoliyatida kasbiy mahoratni shakllantirish bilan bog'liq muammolarni o'rganish va uni hal etish, kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish orqali malakali mutaxassislarni tayyorlash mumkin. Bo'lg'usi o'qituvchilarning pedagogik-psixologik bilim, ko'nikmalarini oshirish zaruriyati ta'lim muassasasiga va o'qituvchilarga qo'yilgan ijtimoiy talablarning o'sishi bilan asoslanadi.[3.457]

Oliy ta'lim sohasida ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilash, undagi talablarga javob beradigan jihatlarni hamda mavjud kamchiliklarni va bo'shliqlarni aniqlash asosida ta'lim berishga bo'lgan haqiqiy ehtiyojlarni belgilash amalga oshiriladi. Shu asosida innovatsiyalarni hayotga joriy etish maqsadga muvofiqliр. Bu

esa pedagogik kompetensiyani rivojlantirishga olib keladi. O'quv mashg'ulotlari davomida muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlardan yana biri talabalarning o'quv jarayonlarini ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish va o'quvchi shaxsiga qaratishdan iborat.

Bularga talabalarda bilishga qiziqishlari, ularda burch hissi hamda ta'lif jarayonida mas'uliyat xissini shakllantirish metodlari ham kiradi. Pedagogik jarayonlarni yanada takomillashtirishda sub'ektlarning hamkorlikdagi ish faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish, erishish muhim bo'lgan maqsad va vazifalar tizimida ularning faolligini rivojlantirish samaradorligini har jihatdan mavjud motivlarga va motivlashtirishga uzviy bog'liqdir. Ta'lif sohasi -jamiatning barcha muammolarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy institutdir.

Zamonaviy ta'lilda ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni boyitib, takomillashtirib borish zarur, o'quv faoliyati orqali uni insonparvarlashtirish, ma'naviy-ma'rifiy yuksalishga ega bo'lgan tarbiyaviy tadbirlarni faollashtirish orqali, pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash orqali yuksak ma'naviy, mas'uliyatli, ijodkor, kompetentli shaxslarni tarbiyalash lozim. Shaxsni ma'naviy-ma'rifiy tomondan yuksaltirish hozirgi kunda ta'lording muhim masalasi bo'lib, buning uchun avvalo o'qituvchining o'zida yuksak darajadagi ma'naviy-ma'rifiy kompetentlik bo'lishi muhim. Ma'naviyat -insonning o'z shaxsiy potensialini ochishga qaratilgan, ichki olamining boyish bilan bog'liq bo'lgan sifatlarning ko'rinishi. Ma'naviyat - mukammallik va ichki olamning muvozanatini o'zida aks etuvchi shaxs sifatida o'zini anglashining tavsifidir.[4.320]

Bizning moddiy va ma'naviy yuksalishimizni ta'minlovchi asosiy mezon sanaladigan ma'naviyatning yaqqol tasavvurlarini kelajak avlodga yetkazmoq lozimdir. Ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish -bu o'ziga va atrofdagilarga qaratilgan xulq-atvorining bir ko'rinishi sifatida o'z-o'zini yaratishi va rivojlantirishi hisoblanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy kompetentlilikni rivojlantirish shaxsiy rivojlanishi, ma'naviy-ma'rifiy namunaning mavjudligi (ota-on, ustozlar timsolida), ta'lif dasturiga integratsiyalashgan umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan o'quv jarayonining tashkil etilishi asnosida shakllana boradi. Ma'naviy-ma'rifiy tomondan yuksalish-shaxsning diniy va milliy qadriyatlar manbalarini o'zlashtirishi, an'anaviy axloqiy me'yorlar va ma'naviy ideallarning o'ziga, yon-atrofdagilarga, davlatga va umuman olganda dunyoga nisbatan munosabati; tashkillashtirilgan ta'lif jarayonida ta'lif vositalari orqali amalga oshiriladi.

Ma'naviyatning ruhiy manbalari insonga muhabbat, hayotiy muvaffaqiyat va oliy qadriyatlar asosida yotadi. O'qituvchilar faoliyatining ilmiyligi -yangiliklarni izlash, o'rganish va ularga asoslanish hamda ilmiy dalillangan manbalardan foydalanish,

pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning pedagogik, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini o'zlashtirish, shular qatori pedagogik jarayonlarga innovatsion yondashuv texnologiyalarini tadbiq etish kabi ustuvor vazifalarni belgilaydi.[5.420]

Xulosa sifatida shuni aytishimiz kerak-ki, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning turli xil metod, usullari bilan tanishtirish, ularning kasbiy kompetentligini yanada rivojlantirish, kasbiy rivojlanish sirlari bilan qurollantirish hamda pedagogik inovatsiyalar bilan ishlash metodikasini shakllantirish ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biridir. Pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash uchun bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik jarayonlarni strategik rejalashtirish, loyihalashtirish, modellashtirish, o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta'minlash, vaziyatlarga ko'ra pedagogik jarayonni boshqarish usullari, metodlari hamda tamoyillari, innovatsion texnologiyalarni bilishi va ular asosida pedagogik jarayon sub'ektlarining innovatsion faoliyatini tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M., Umaraliyeva M.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va smaradorligini oshirish texnologiyalari. Toshkent: 2014. -58 b.
2. Muslimov N. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Pedagogika fanlari doktori.... diss. -T.: 2007.
3. Olimov Sh.Sh., Hasanova Z.D. Pedagogik texnologiyalarni o'quv-tarbiya jarayoniga qo'llash. -Toshkent: Fan va texnologiya. 2014, -11 b.
4. Мирзорахимов, О. К., & Мадрахимова, И. Б. (2022). УЎУВЧИЛАРНИ ВАТАНПАРVARЛИК РУХДА ТАРБИЯЛАШДА МАКТАБ ВА ОИЛАНИНГ АХДМИЯТИ. Academic research in educational sciences, 3(2), 385-389.
5. Baxodirovna, M. I. (2021). Adabiyot darslari samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalarning o'rni. Ta'lim fan va innovatsiya, 1(5), 140-142.
6. Ahmedov, B. A., Askarova, M. R., Xudayqulova, F. B., Tojiboeva, G. R., Artikova, N. S., Urinova, N. S., ... & Omonova, S. M. (2022).